“ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS”

“TARIX O‘QITISH METODIKASI” FANIGA INTEGRATSIYALANGAN RAQAMLI-METODIK MODUL: VERTIKAL INTEGRATSIYA VA 4+2 TARTIBIDAGI PEDAGOGIK AMALIYOT

Insopov Jamshid Abdusamadovich
Termiz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
DOI: 10.67620/ajousci.240036

Annotatsiya. *Maqolada Termiz davlat pedagogika institutining 60111100 – Tarix ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ishchi o‘quv rejasi asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining raqamli-metodik tayyorgarligini vertikal integratsiya qilish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Fanlar hajmi va kreditlarini o‘zgartirmagan holda ularning sillabuslariga raqamli-metodik mazmunni kiritish xaritasi taklif etilgan. Integratsiyaning yadrosi sifatida “Tarix o‘qitish metodikasi” fani tarkibiga singdiriladigan 15 mavzuli modul ishlab chiqilgan hamda uni 4+2 tartibidagi pedagogik amaliyot va mustaqil ta’lim bilan bog‘lash mexanizmi asoslangan.*
Kalit so‘zlar: *integrativ modul, vertikal integratsiya, “Tarix o‘qitish metodikasi”, 4+2 tartib, pedagogik amaliyot, mustaqil ta’lim, teskari loyihalash.*

Abstract. *Based on the working curriculum of the 60111100 – History programme at Termez State Pedagogical Institute, the article examines ways of vertically integrating the digital-methodological training of pre-service history teachers. A map for embedding digital-methodological content into course syllabi without changing their workload or credits is proposed. As the core of this integration, a 15-topic module embedded in the History Teaching Methodology course has been developed, and a mechanism linking it with the 4+2 school practice scheme and students’ independent study is substantiated.*
Key words: *integrative module, vertical integration, History Teaching Methodology, 4+2 scheme, teaching practice, independent study, backward design.*

KIRISH

Ta’limni raqamli transformatsiyalash sharoitida bo‘lajak tarix o‘qituvchisining raqamli tayyorgarligi alohida fanlar orqali emas, balki fanga xos metodik tayyorgarlik bilan uyg‘unlikda shakllanishi kerak. P.Mishra va M.Koler ta’kidlaganidek, texnologiyani o‘qitishga samarali integratsiya qilish uchun texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlarning o‘zaro bog‘liqligini

tushunish zarur [10]. Amaliyotda esa raqamli texnologiyalarga oid fanlar va tarix o‘qitish metodikasi ko‘pincha bir-biridan ajralgan holda o‘qitiladi.

Maqolaning maqsadi real o‘quv reja asosida bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining raqamli-metodik tayyorgarligini vertikal integratsiya qilish xaritasini va “Tarix o‘qitish metodikasi” faniga singdiriladigan integrativ modulni ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Tarix o‘qitish metodikasi fanining an’anaviy tuzilmasi M.T.Studenikin [16], Ye.Ye.Vyazemskiy va O.Yu.Strelova [15] darsliklarida shakllangan. Biroq bu darsliklar raqamli transformatsiya hozirgi ko‘lamga yetmagan davrda yaratilgani bois ularda raqamli manbalarni tanqidiy baholash yoki sun’iy intellekt bilan ishlash masalalari aks etmagan. A.A.Verbitskiyning kontekstli ta’lim nazariyasi o‘quv faoliyatini bosqichma-bosqich kasbiy faoliyatga yaqinlashtirishni talab etadi [14]. J.Bergman va A.Sems teskari sinf modelini [4], D.R.Garrison va X.Kanuka aralash ta’limning transformatsion salohiyatini [7] asoslagan. G.Uiggins va J.Maktayning teskari loyihalash yondashuvi [12] esa o‘quv faoliyatini kutilayotgan natijadan boshlab rejalashtirishni nazarda tutadi. A.Reysman hujjatlarga asoslangan “tarixchi kabi o‘qish” kursining samaradorligini tajriba-sinovda ko‘rsatgan [11].


Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda o‘quv rejani kontent-tahlil qilish, qiyosiy tahlil, pedagogik loyihalash va modellashtirish usullaridan foydalanildi. Empirik asos sifatida Termiz davlat pedagogika institutining 60111100 – Tarix ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 2026/2027-o‘quv yili ishchi o‘quv rejasi olindi [1]. Integratsiyani loyihalashda kredit-modul tizimi talablari hisobga olindi [2; 3].

Tahlil va natijalar

O‘quv reja tahlili. O‘quv rejaning umumiy hajmi 7200 soat (240 kredit) bo‘lib, shundan 144 kredit majburiy fanlarga, 60 kredit tanlov fanlariga, 36 kredit malaka amaliyotiga ajratilgan [1]. Raqamli-metodik tayyorgarlikka xizmat qila oladigan fanlar turli kurslarga tarqalgan: “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” (2-semestr, 5 kredit), “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash” (tanlov, 3-semestr, 4 kredit), “Tarix o‘qitish metodikasi” (4-semestr, 4 kredit), “Manbashunoslik” (5-semestr, 4 kredit), “Muzeyshunoslik” va “Tarixiy o‘lkashunoslik va turizm” (tanlov, 6-semestr), “Uzluksiz ta’limdagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar” (7-semestr, 5 kredit), “Tarixiy informatika” (tanlov, 8-semestr, 5 kredit). O‘quv rejada 3–8-semestrlarda 4+2 tartibi belgilangan: haftaning to‘rt kunida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar, ikki kunida pedagogik amaliyot o‘tkaziladi. Reja izohlarida mustaqil ta’lim mazmunini amaliyot dasturiga moslashtirish va 5–8-semestrlarda amaliyotni tarix o‘qitish metodikasi bilan integratsiya qilish talab etilgan.

Vertikal integratsiya xaritasi. Tahlil asosida raqamli-metodik tayyorgarlikni bitta fan doirasida emas, balki bir nechta fan va amaliyot bo‘ylab vertikal integratsiya qilish taklif etildi (1-rasm). Bunda fanlarning hajmi va kreditlari o‘zgartirilmaydi, raqamli-metodik mazmun ularning sillabuslariga topshiriqlar shaklida kiritiladi.



1-rasm. O‘quv reja asosida raqamli-metodik tayyorgarlikning vertikal integratsiyasi xaritasi (muallif ishlanmasi)

Xaritaga ko‘ra, har bir fan raqamli-metodik tayyorgarlikda o‘z vazifasini bajaradi. “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati” fanida raqamli tarixiy savodxonlik asoslari, xususan, lateral o‘qish va soxta tarixiy kontentni aniqlash strategiyalari o‘zlashtiriladi. “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash” tanlov fanining laboratoriya mashg‘ulotlarida tarix materiali asosida raqamli vaqt shkalasi va interaktiv xarita kabi kontent yaratiladi. “Manbashunoslik” fanida raqamli arxivlar bilan ishlash va raqamlashtirilgan manbalarning autentikligini tekshirish usullari o‘rganiladi. “Muzeyshunoslik” va “Tarixiy o‘lkashunoslik va turizm” tanlov fanlari virtual muzeylar va og‘zaki tarix loyihalari bilan ishlash tajribasini beradi. “Uzluksiz ta’limdagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar” fanida sun’iy intellekt va aralash ta’lim tendensiyalari, “Tarixiy informatika” tanlov fanida esa raqamli gumanitar usullar o‘rganiladi. Tanlov fanlari barcha talabalar tomonidan tanlanmasligi mumkinligi sababli integratsiyaning majburiy yadrosini majburiy fanlar va malaka amaliyoti tashkil etadi.

Integrativ modul. Integratsiyaning yadrosi sifatida “Tarix o‘qitish metodikasi” fani tarkibiga singdiriladigan “Raqamli ta’lim muhitida tarix o‘qitish metodikasi” moduli ishlab chiqildi. Fanning o‘quv rejadagi hajmi (120 soat: 30 soat ma’ruza, 30 soat seminar, 60 soat mustaqil ta’lim) saqlangan holda modul 15 mavzudan iborat bo‘lib, har bir mavzuga 2 soat ma’ruza, 2 soat seminar va 4 soat mustaqil ta’lim ajratiladi (1-jadval).

1-jadval

“Tarix o‘qitish metodikasi” faniga integratsiyalangan modul mavzulari (har bir mavzu: 2 s. ma’ruza, 2 s. seminar, 4 s. mustaqil ta’lim)

№	Mavzu	Seminarda tayyorlanadigan metodik mahsulot
1	Tarix o‘qitish metodikasi fan sifatida. Raqamli transformatsiya sharoitida tarix ta’limi	Esse-refleksiya
2	Tarix ta’limining maqsadi, mazmuni va DTS. Kompetensiyaviy yondashuv	DTS talablari tahlili
3	Tarixiy tafakkur nazariyasi va TPACK modeli	TPACK asosida dars tahlili
4	Tarix o‘qitish tamoyillari va metodlari. Teskari loyihalash	Natija va baholash rejasi
5	Tarixiy fakt va tushunchalarni shakllantirish. Raqamli tafakkur xaritalari	Tushunchalar xaritasi
6	Xronologik tasavvurlar. Raqamli vaqt shkalalari	Vaqt shkalasi va topshiriqlar
7	Kartografik tasavvurlar. Interaktiv xaritalar	Interaktiv xarita topshirig‘i
8	Tarixiy manbalar bilan ishlash. “Tarixchi kabi o‘qish”	Manba tahlili topshirig‘i
9	Raqamli tarixiy manbalar: izlash, baholash, lateral o‘qish	Izohlangan manbalar to‘plami
10	Ko‘rgazmalilik va moddiy manbalar. Virtual muzeylar	Muzey obyekti bo‘yicha topshiriq
11	Tarix darsida munozara va hamkorlik. Onlayn munozara	Munozara ssenariysi
12	Tarix darsi: turlari va tuzilishi. Aralash ta’lim va teskari sinf	Dars fragmenti
13	Sun’iy intellekt va tarix ta’limi: imkoniyatlar, xavflar, etika	SI matnini tekshirish topshirig‘i
14	Bilimlarni nazorat qilish. Tarixiy tafakkurni baholash	Baholash rubrikasi
15	Darsdan tashqari ishlar va o‘lkashunoslik. Yakuniy loyiha himoyasi	Raqamli dars loyihasi va mikrodars

Modulning o‘ziga xosligi shundaki, raqamli vositalar mustaqil o‘rganish obyekti sifatida emas, balki tarix-metodik vazifani hal qilish vositasi sifatida kiritilgan. Har bir seminar aniq metodik mahsulot bilan yakunlanadi, mahsulotlar elektron portfolioda to‘planib, modul yakunida himoya qilinadigan yaxlit raqamli dars loyihasining tarkibiy qismlariga aylanadi. Mavzular nomi institutda tasdiqlangan fan sillabusi bilan muvofiqlashtiriladi.

Dars loyihasi namunasi. Modulning yakuniy mavzusida talabalar himoya qiladigan raqamli dars loyihalaridan biri sifatida “Amir Temur davri tarixiy manbalarda” darsi taklif etiladi. Unda o‘quvchilar turli pozitsiyadagi mualliflar qoldirgan manbalarni qiyoslaydi: saroy tarixchilari Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”lari, Temurga tanqidiy munosabatda bo‘lgan Ibn Arabshohning asari hamda 1404-yilda Samarqandga kelgan Kastiliya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning kundaligi. O‘quvchilar guruhlarda manba muallifi, maqsadi va Temurga munosabatini aniqlaydi, so‘ngra manbalar nima uchun turlicha yozilganini muhokama qiladi. Darsning har bir raqamli bosqichi uchun muqobil an’anaviy variant ham ko‘rsatiladi: onlayn so‘rovnoma – qo‘l ko‘tarish orqali ovoz berish, interaktiv xarita – devoriy xarita, onlayn

hamkorlikdagi hujjat – bosma tarqatma material. Bu dars loyihasining texnik sharoitlardan qat’i nazar amalga oshirilishini ta’minlaydi.

4+2 tartibi bilan bog‘lash. 4+2 tartibi nazariy mashg‘ulotda loyihalangan dars elementini o‘sha haftaning o‘zida maktabda sinab ko‘rish va natijasini keyingi seminarda muhokama qilish imkonini beradi. Bu D.Kolbning tajriba orqali o‘rganish siklini [9] va D.Shyonning refleksiv amaliyot g‘oyasini [13] har haftalik takrorlanadigan jarayonga aylantiradi. Mustaqil ta’lim topshiriqlarining bir qismi amaliyot kunlarida bajariladi: talaba darsni kuzatadi yoki dars fragmentini o‘tkazadi, uning natijasini mustaqil ish sifatida tahlil qilib, portfolioga kiritadi. Darslardan biri maktab ma’muriyati va o‘quvchilarning qonuniy vakillari roziligi bilan video yozuvga olinib, mikroo‘qitish tamoyillari asosida tahlil qilinadi [5]. Amaliyotdagi raqamli-metodik vazifalar semestrlar bo‘yicha taqsimlandi: 5-semestrda raqamli manbalar bilan ishlash fragmentlari, 6-semestrda virtual muzey va o‘lkashunoslik mashg‘ulotlari, 7-semestrda to‘liq raqamli darslar va video-refleksiya, 8-semestrda mustaqil darslar turkumi va yakuniy portfolio. Har bir raqamli yechim uchun texnik imkoniyati cheklangan sharoitga mos muqobil variant nazarda tutiladi.

Onlayn o‘quv faoliyati J.Salmonning e-faoliyat tamoyillari asosida [8], baholash esa shakllantiruvchi baholash g‘oyasiga muvofiq rubrikalar orqali tashkil etiladi [6].

Baholash tizimi. Modul bo‘yicha talabalar faoliyatini baholashda shakllantiruvchi va yakuniy baholash uyg‘unlashtiriladi. Tavsiya etiladigan nisbatga ko‘ra, joriy nazoratga (seminarlardagi metodik mahsulotlar va onlayn munozaradagi ishtirok) 40 foiz, elektron portfolioga 20 foiz, yakuniy nazoratga (raqamli dars loyihasi va mikrodars himoyasi) 40 foiz ajratiladi. Aniq ballar institutning amaldagi baholash tartibiga muvofiq belgilanadi. Yakuniy nazoratning an’anaviy test shaklida emas, balki kasbiy mahsulot shaklida o‘tkazilishi kompetensiyaviy yondashuv talabiga mos keladi, chunki kompetentlik faqat faoliyatda namoyon bo‘ladi.

Xulosa

O‘quv reja tahlili raqamli-metodik tayyorgarlikka xizmat qiluvchi fanlar turli kurslarga tarqalgani va o‘zaro bog‘lanmaganini ko‘rsatdi. Taklif etilgan vertikal integratsiya xaritasi fanlar hajmi va kreditlarini o‘zgartirmagan holda ularni “Tarix o‘qitish metodikasi” fani atrofida birlashtirish imkonini beradi. Fanga singdiriladigan 15 mavzuli modul hamda uning 4+2 tartibidagi amaliyot va mustaqil ta’lim bilan bog‘lanishi o‘quv reja talablariga to‘liq mos keladi va metodik kompetentlikni real kasbiy kontekstda rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Taklif etilgan metodikaning samaradorligi pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali aniqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Termiz davlat pedagogika instituti. 60111100 – Tarix ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ishchi o‘quv reja (2026/2027-o‘quv yili). – Termiz, 2026.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son qarori.
4. Bergmann J., Sams A. Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day. – Eugene, OR: International Society for Technology in Education, 2012.

5. Allen D., Ryan K. Microteaching. – Reading, MA: Addison-Wesley, 1969.
6. Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. – 1998. – Vol. 5, № 1. – P. 7–74.
7. Garrison D.R., Kanuka H. Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education // The Internet and Higher Education. – 2004. – Vol. 7, № 2. – P. 95–105.
8. Salmon G. E-tivities: The Key to Active Online Learning. – London: Kogan Page, 2002.
9. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984.
10. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, № 6. – P. 1017–1054.
11. Reisman A. Reading Like a Historian: A Document-Based History Curriculum Intervention in Urban High Schools // Cognition and Instruction. – 2012. – Vol. 30, № 1. – P. 86–112.
12. Wiggins G., McTighe J. Understanding by Design. – Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development, 1998.
13. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – New York: Basic Books, 1983.
14. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. – М.: Высшая школа, 1991.
15. Вяземский Е.Е., Стрелова О.Ю. Теория и методика преподавания истории: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Гуманитарный изд. центр ВЛАДОС, 2003.
16. Студеникин М.Т. Методика преподавания истории в школе. – М.: Гуманитарный изд. центр ВЛАДОС, 2000.